

ISLOM VA OILA MUNOSABATLARI***Shermamatov Bahodir****Muhammad Al-Xoramiy nomidagi**Toshkent Axborot Texnologiyalari**Universiteti Samarqand filiali*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dinida oila muqaddasligi, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyasi, oilaviy baraka va murosa ruhidagi yashash tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, Qur’on va Hadis asosida sog‘lom oilaning asosiy unsurlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: oila, nikoh, murosa, tarbiya, er-xotin, Qur’on, hadis

Kirish

Islom dini oilani jamiyatning asosi sifatida ko‘radi. Har bir insonning axloqiy va ijtimoiy shakllanishida oila bиринчи tarbiya mактаби hisobланади. Shuning uchun ham Qur’oni karim va Hadisda oila munosabatlariga alohida e’tibor berilган. Islomda oila — Allah taolo tomonidan belgilangan, muqaddas va barakali muassasa sifatida ko‘riladi.

Nikohning ahamiyati

Qur’oni karimda Allah taolo deydi:

“U zot sizlar uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratdi, toki ular bilan xotirjamlik topasizlar...” (Rum surasi, 21-oyat)

Nikoh – nafaqat jismoniy, balki ruhiy totuvlik va xotirjamlikni ta’minlaydigan muqaddas rishtadir. Islomda er va xotin bir-birining libosi, ya’ni himoyachisi va suyanchig‘i sifatida ko‘rsatilgan.

Er-xotin o‘rtasidagi muomala

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam aytganlar: *“Sizlarning eng yaxshilaringiz – ayollariga yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir.”* (Imom Termiziy rivoyati)

Bu hadis oilada hurmat va muhabbat muhitini yaratish Islomda eng ulug‘ fazilat ekanini bildiradi. O‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, sabr va kechirimlilik sog‘lom oilaning poydevoridir.

Farzand tarbiyasi

Islomda farzandlar Allohning omonati deb qaraladi. Ularga yaxshi ism qo‘yish, halol rizq bilan ta’minlash va eng muhim, tarbiya berish ota-onaning asosiy burchidir. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam:

"Farzandlaringizga e’tiborli bo‘linglar, ularga yaxshi tarbiya beringlar. Bu sizlarning ustingizdagi mas’uliyatdir", deganlar.

Tarbiyada namuna ko‘rsatish, sabr, duo va ta’lim muhim rol o‘ynaydi.

Oilada murosa va Baraka

Oilaviy hayotda muammolar bo‘lishi tabiiy. Islom bunday vaziyatlarda murosani, sabrni, maslahatni va adolatli qaror chiqarishni tavsiya qiladi. Qur’onda: *"Agar ular (er-xotin) yarashmoqchi bo‘lsalar, Allah ularning o‘rtasini yarashtiradi."* (*Niso surasi, 35-oyat*)

Barcha oilaviy qarorlar maslahat asosida, mehr va mas’uliyat bilan qabul qilinishi kerak.

Xulosa

Islom oilani muqaddas deb biladi. Oila murosaga, mehrga, sabrga va tarbiyaga asoslanadi. Sog‘lom jamiyat – sog‘lom oilalardan iborat. Har bir musulmon o‘z oilasini baraka va rahmat manbaiga aylantirish uchun harakat qilishi lozim. Oilaning har bir a’zosi o‘z vazifasini ado etsa, jamiyatda adolat va totuvlik hukm suradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Qur’oni Karim (Shayx M. S. Muhammad Yusuf tarjiması)
2. Imom Termiziy, *Sunan*
3. Shayx M. S. Muhammad Yusuf, *Oila tarbiyasi*
4. Al-Azhar ulamolari majmuasi
5. O‘zbekiston Respublikasi Musulmonlar idorasi risolalari